# Qozon va Samara shaharlaridan Toshkentga qo'shimcha charter qatnovlari

**2020 4 Oktabr**

Hurmatli yo'lovchilar!

"Uzbekistan airways" aviakompaniyasi 2020-yil 9- oktyabrda Qozondan Toshkentga va 2020-yil 10-oktyabrda Samaradan Toshkentga qo'shimcha charter qatnolari amalga oshirilishi to'g'risida xabar beradi.

Parvozlar jadvali va aviachiptalar narxlari bilan aviakompaniya veb-saytida tanishishingiz mumkin:

| Yo'nalish | Reys raqami | Uchish/kelish vaqti | |
|---|---|---|---|
| Qozon - Toshkent | HY 3650 | 09:00/14:30 | Chipta sotib olish |
| Samara - Toshkent | HY 3654 | 11:20/15:25 | Chipta sotib olish |

Quyidagilarga e'tibor qaratishingizni iltimos qilamiz:

Rossiya Federatsiyasining shaharlaridan O'zbekistonga havo qatnoviga O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Qirg'iziston fuqarolariga PZR tekshiruvidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotnomani (qatnov  jo'nashidan oldin kamida 72 soatdan ko'p bo'lmagan muddatda amal qiluvchi) majburiy ravishda taqdim etish sharti bilan ruxsatl beriladi.  PZR ma'lumotnomasiga ega bo'lmagan yo'lovchilar aviakompaniyaning parvozlariga qo'yilmaydi.

Aviachiptalarni aviakompaniya veb-saytidan, shuningdek, "Uzbekistan  airways" AJning eng yaqin savdo ofislaridan yoki mintaqangizdagi savdo agentlaridan sotib olish mumkin.

Sizni aviakompaniyamiz qatnovlarida ko'rishdan xursand bo'lamiz!
Sizga yoqimli va xavfsiz parvozlar tilaymiz!